

KITOB – MA'RIFAT CHASHMASI

Bazarov Shavkat

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sharq xalqlarining buyuk mutafakkirlari, ma'rifatparvar allomalarning falsafiy, axloqiy-estetik qirralari, milliy qadriyatlarimiz, jumladan, o'z kitoblarida ilgari surilgan mafkuraga oid qirralarni ilmiy jihatdan keng o'rganishga qaratilgan bo'lib, kitobning yosh avlod ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyati beqiyosligi va kitobxonlarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'llari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Kitob, bilim, mutolaa, axborot, o'qish, kitobxonlik madaniyati.

Аннотация. В данной статье на научной основе широко рассматриваются философские, нравственно-эстетические взгляды великих мыслителей и просветителей восточных народов, а также национальные ценности, в том числе идеологические аспекты, отражённые в их произведениях. Раскрывается неопределимое значение книги в духовном воспитании молодого поколения и освещаются пути повышения интереса читателей к чтению.

Ключевые слова: книга, знание, чтение, информация, процесс чтения, культура чтения.

Annotation. This article is devoted to a comprehensive scientific study of the philosophical, moral, and aesthetic aspects of the great thinkers and enlightened scholars of Eastern peoples, as well as our national values. In particular, it explores ideological ideas advanced in their works. The article highlights the incomparable importance of books in the spiritual upbringing of the younger generation and reveals ways to increase readers' interest in reading.

Keywords: Book, knowledge, reading, information, study, reading culture.

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda badiiy adabiy merosni o'rganish, milliy qadriyatlarni tiklashga katta e'tibor qaratildi. Sharq xalqlarining buyuk mutafakkirlari, ma'rifatparvar allomalarning falsafiy, axloqiy-estetik qirralari, milliy qadriyatlarimiz, jumladan, o'z kitoblarida ilgari surilgan mafkuraga oid qirralarni ilmiy jihatdan keng o'rganishga kirishildi.

Insoniyat tarixidagi sakkizinchi mo'jiza deb ataluvchi kitobni bashariyat tarixida alohida o'rni va ahamiyati bor. Aytish mumkinki u odamizod ixtiro qilgan eng ajoyib va g'aroyib kashfiyotlardan biridir.

“Kitob” arabcha so'z bo'lib, lug'atda “yozish”, “yozuv”, “bitik” ma'nolarini anglatadi. Urfda muayyan mavzu yoki sohaga doir ma'lumotlarning tartibli ravishda sahifalarga bitilgan va ikki muqova o'rtasiga jamlangan shakliga kitob deyiladi.

Kitob – axborotlarni, g'oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi; bilimlar targ'iboti va tarbiya quroli; badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot. Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga ko'ra, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashrni, shartli ravishda, kitob deyish qabul qilingan.

Kitob-moziy darakchisi, bugunning tarbiyachisi va muallimi, kelajakning yo'lboshchisi. Kitobni ma'naviy xazina, haqiqiy boylik, deyilgan. Uni chin dildan

sevib qadrlagan Abu Ali ibn Sino og'ir betob bo'lgan Buxoro hukmdori Nuh ibn Mansurni davolagach, evaziga oltin kumushlar to'la sandiqni emas, balki saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritishni afzal ko'rgan edi.

Buyuk sarkarda Amir Temur o'zi bosib olgan o'lkalarning dastlab kitoblarini bir yerga jamlab ko'zdan kechirib chiqadigan bo'lgan. Sohibqiron Amir Temur "Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir", deb takidlaydi. Hazrat Alisher Navoiy esa "Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai", deb ta'rifu-tashbeh bergan.

Fransiya qiroli Napoleon Banopard kitob o'qiganida minutiga 2000 so'z tezligida o'qiydigan bo'lgan. Hukumdor sarkarda, ijodkor inson astronom olim Mirzo Ulug'bek esa eng qimmatbaho dunyolarining ichida o'zi suyib o'qiydigan tarixiy shaxslar qalamiga tegishli kitob va qo'lyozmalarni hamisha eng asosiy o'ringa qo'ygan va ularni katta hurmat bilan saqlagan. Taniqli kino aktyor, kunfu ustasi Bryus Li kitob o'qishni juda yaxshi ko'radigan, kitoblarga "fikrlar bulog'i" degan ko'z qarashda baholaydigan bo'lgan.

Kitob o'qish barchamizning ma'naviy olamimizni boyitadi, so'zlashuv madaniyatimizni oshiradi. Ayrim hollarda muqaddas o'zbek tilimizdagi ayrim vatandoshlarimiz "xizmati" tufayli dag'allashib, kambag'allashib borayotganligining oldini olish uchun ham kitob o'qish lozim. Vaholanki, bizning o'zbek tilimiz dunyodagi eng boy tillar qatoriga kiradi.

Pushkin butun ijodi davomida jami 21197 ta so'z qo'llagan bo'lsa, Shekspir asarlari tilida jami 20 mingdan ortiq va Servantesning ijodida 18 ming so'z qo'llanilgani haqida ma'lumot berganlar.

Buyuk bobomiz Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilgan so'zlar soni esa 26000 dan ortiq ekan. Ana shuncha milliy boyligimizni avaylab-asrash uchun ham kitob o'qish lozim.

O'tmishda har bir sohaning yetuk bilimdonlari uzoq yillar mobaynida qancha qiyinchilik va mehnatlar ila hosil qilgan ilmlari, malakaviy tajriba xulosalarini keyingilar uchun kitob sahifalariga yozib qoldirishgan. Bu ma'naviy merosni o'qib-o'rganish kelajak avlod vakillarining yuksak cho'qqilarni zabt etishlariga zamin yaratadi.

Darhaqiqat, kitobxonlik madaniyatini oshirish davr talabi. Mubolag'asiz aytish mumkinki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018-yil 12-mayda yoshlarimizni o'zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o'rtasida kitobxonlik madaniyatini har tomonlama ommalashtirishga yo'naltirilgan "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida" PQ-3721-sonli qarori e'lon qilindi. Yurtboshimiz mutolaa masalasining yoshlar tarbiyasidagi va jamiyat hayotidagi hal qiluvchi ahamiyatiga katta e'tibor berayotganini 2026-yil 15-yanvarda "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-9-sonli qarori ham bunga misol bo'la oladi.

Kitob insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo'lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo'tabar va muqaddas deb hisoblagan. Shuning uchun kitobga bo'lgan muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Kitob o'qigan odam hech qachon yolg'iz qolmaydi. Insonning madaniyati uning kitobida aks etadi.

Inson kitobni qancha ko'p o'qisa, hikoya qilish qobiliyati shunchalik oshadi. Keraksiz gaplarni kamroq gapirib, keraklilarini yaxshiroq yetkazadigan bo'ladi. Yuqori darajadagi aqliy salohiyat insonning tashqi ko'rinishini ham go'zallashtiradi. Bundan tashqari, har qanday mavzuda qiziqarli suhbat qura olish va o'z bilimini namoyish etish suhbatdoshining mehrini qozonishga yordam beradi. Kitobxonlik yuzasidan turli tadbir va suhbatlar tashkil etish natijasida kitobxonlar qanday mavzudagi kitoblarni o'qigan bo'lardingiz, degan savol bilan yuzlanib, kichik so'rovnomaga o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, kitobxonlar asosan o'zbek va jahon yozuvchilarining badiiy ommabop asarlarini sevib o'qishlari ma'lum bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, yurtimizda kitobxonlik madaniyatini oshishi yangi davrini boshlab berdi. Demak, kitob oldingilarning ilm xazinalarini ochib beruvchi kalit va taraqqiyotga eltuvchi ko'prikdir. Haqiqatdan ham kitobning yosh avlod ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyati beqiyos.

Kitob yolg'izlikda va tashvishli kunlarda munis ulfat, suhbatida kishiga malollik etmaydi, do'stining dilini og'ritmaydi, orqasidan g'iybat qilmaydi. Inson kitobdan shunday fayzli foydalar hosil etadiki, bundayini boshqa hech qayerdan topa olmaydi. Shuning uchun kitobni bilim bulog'i deydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 325-326 betlar.
2. Begnarovich, U. A. Specification of Appearances of Comprehensive Forms in Uzbek Language Morphemes. *JournalNX*, 1283-1287.
3. Mashriqzamin-hikmat bo'stoni. – T.: 1997. 39-bet.
4. 3.Kutubxona.uz – T.: 2019 № 2. 6-bet
5. Уралов, А. Б., & Бердалиева, С. Х. (2020). МОРФЕМАЛАР ТИЗИМИДА АГГЛЮТИНАЦИЯ ВА ФУЗИЯ МУНОСАБАТИ. *Интернаука*, (20-4), 81-82.
6. Уралов, А. Б., & Умарова, Б. Х. (2020). ТУРКИЙ ТИЛЛАРДА МОРФЕМАЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ. *Интернаука*, (20-4), 77-78.
7. Uralov, A. B. (2018). COMPREHENSIVE AND EXTENDED FORMS OF SUFFIXES IN UZBEK LANGUAGE. *Theoretical & Applied Science*, (12), 127-131.